



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 27.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)
ZENODO
OPEN AIRE
EUROPUB
RESEARCHGATE (OAK BAZA)
SJIF



Nosirov Nasibillo Xalililloh o'g'li
Andijon davlat chet tillari instituti,
stajyor tadqiqotchisi
Uzbekistan

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI NUTQI: MEDIALINGVISTIKA VA MEDIA MATN

Abstract: In this article, the author tried to express his opinions about the lexical-semantic and functional analysis of media communication terms in the current English and Uzbek languages. The author focused on compound nouns as the main research material. In the process of preparing the article, the author critically approached the views of English and Uzbek linguists and boldly expressed his opinions. The article may be useful for students of English and Uzbek lexicology.

Key words: terminology, media, lexical-semantic, paralinguistics, non-verbal, verbal.

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif hozirgi ingliz va o'zbek tillaridagi media muloqot atamalarining leksik-semantik va funksional taxlili haqida o'z mulohazalarini bayon qilishga harakat qilgan. Bunda muallifning diqqat markazida qo'shma otlar asosiy tadqiqot materiali sifatida o'rganilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida muallif ingliz va o'zbek tilshunoslarining qarashlariga tanqidiy yondoshgan va o'z mulohazalarini dadil bayon qilgan. Maqola ingliz va o'zbek tili leksikologiyasini o'rganuvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: terminologiya, media, leksik-semantik, paralingvistika, noverbal, verbal.

Аннотация: В данной статье автор попытался выразить свое мнение по поводу лексико-семантического и функционального анализа терминов медиакоммуникаций в современном английском и узбекском языках. В качестве основного материала исследования автор остановился на сложных существительных. В процессе подготовки статьи автор критически подошел к взглядам английских и узбекских лингвистов и смело высказал свое мнение. Статья может быть полезна изучающим английскую и узбекскую лексикологию.

Ключевые слова: терминология, средства массовой информации, лексико-семантика, паралингвистика, невербальное, вербальное.

Language: Uzbek

Citation: Nosirov, N. (2024). MEDIA SPEECH: MEDIALINGUISTIC AND MEDIA TEXT. Universal International Scientific Journal, 1(6), 50–53. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1108>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13890264>

Til ijtimoiy hodisa sifatida doimiy o'zgarish va rivojlanishda ekan, yangi-yangi hodisalarni o'zida aks ettirishi tabiiy holdir. Tilshunoslikda «Medialingvistika»ni mustaqil yo'nalish sifatida ajratish, mediamatn - mediadiskurs dialektikasini o'rganishning nazariy asoslarini yaratish, mediamuloqot tamoyillari va xususiyatlari, o'ziga xos jihatlarini o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Britaniyalik Jon Kornerning «The Scope of Media Linguistics [Text]» («Medialingvistika sohasi [Matn]») maqolasida birinchi marta yangi yo'nalishning predmeti va vazifalari bayon qilingan.

Medialingvistikaning yetakchi ob'ekti bo'lgan mediamatn – bu lingvistik va media xususiyatlarining dialektik birligi bo'lib, til birliklarini, grafik tasvir, audio va videotasvir kabi semiotik belgilar uyg'unligida yaratiladigan muloqot materiali hisoblanadi va u mediadiskursda aktuallashtiriladi. Ya'ni, matn – diskurs mahsuloti, mediamatn – mediadiskurs birligi sifatida qaraladi va ana shu to'rt tushuncha o'rtasidagi bir-birini to'ldiruvchi va farqli jihatlariga e'tibor qaratiladi.

«Mediamatn» atamasini ilk bor T.G.Dobrosklonskaya o'zining «Voprosy izucheniya mediatekstov: Opyt issledovaniya sovremennoy angliyskoy mediarechi» («Mediamatn tadqiqi masalalari: hozirgi zamon ingliz medianutqi tadqiqi tajribasidan») asarida qo'llagan.

Binobarin, matn tushunchasining an'anaviy ob'ekti doirasi kengayib, turli semiotik belgilarga oid birliklarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi asosidagi yaxlitlik sifatida yangidan-yangi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ldi. «Televideniye paydo bo'lgunga qadar axborot uzatish jarayonida noverbal vositalarning ishtirok etishi amalda deyarli yo'q edi. Kommunikator tomonidan qo'llangan bu usullar berilgan

ma'lumotning adresat tomonidan o'zlashtirilishini birmuncha osonlashtirdi.» Internet tarmog'i shakllanishi bilan esa esa bu jarayon shaxslararo muloqot doirasiga ham kirib bordi.

«Mediamatn» atamasi bir-birining o'rnini bosa oladigan parallel yoki o'zaro kesishadigan hodisalar - ommaviy-kommunikativ matn, ommaviy axborot vositalari matni, publitsistik matn, jurnalistik matn, gazeta matni, telematn, reklama matni, RR-matn, internet matni va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, «media» atamasining semantik tarkibi (lotincha «media», «medium» - usul, vosita) har qanday axborot vositasi - toshga o'yib ishlangan rasmlar, an'anaviy kitoblar, badiiy asarlardan tortib texnik taraqqiyotning eng ilg'or zamonaviy hodisalarigacha mediamatn deb atashga imkon beradi. Shu bilan birga, M.Yu.Kazak umumlashtiruvchi atama sifatida ommaviy axborot vositalari matnlariga nisbatan qo'llash odatga aylangan ligini ham ta'kidlab o'tadi.

Ko'rinadiki, M.Yu.Kazak mediamatn atamasida, umuman, illyustrativ namoyish etiluvchi, yanayam aniqrog'i, o'qish, ko'rish va eshitish orqali qabul qilinadigan axborot uzatuvchi barcha vositalarni umumlashtiradi. Darhaqiqat, bir necha ming yillar ilgari tosh va qoyalarga o'yib ishlangan rasm va yozuvlar o'sha davr kishilari hayoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar sifatida e'tirof etiladi yoki oddiy bosma manbalar - kitob, gazeta, jurnal ham ko'rish funksiyasi orqali, radio qurilmalari esa eshitish orqali axborot uzatuvchi vosita hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda «media» mahsuloti deganda, asosan, audiovizual vositalar anglashiladi. Aytish mumkinki, leksemaning semiotik maydoni torayishi hodisasi yuz bergan, ya'ni vosita sifatida faqat texnik imkoniyatlar nazarda tutiladi.

Mediamatn media va verbal matnlarni birlashtiradi, unda tilning murakkab tabiati (ijodiy material), shaxsning lisoniy qobiliyati, bosma nashr,

televizion kanal, radiostansiyaga oid vosita va imkoniyatlarni birlashtiradi .

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, muloqot tarixida mediamatnning qadimgi ibtidoiy namunalari ham uchratishimiz mumkin. Qadimiylar Xitoy jang-u jadallariga oid quyidagi voqea fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Chjuge Lyan qayta va qayta Sima Ini ochiq jangga kirishga majburlardi, lekin u kutish taktikasini qo'llardi.

Bir qancha vaqtdan so'ng Chjuge Lyan Sima Iga chopar orqali bir qutini yuboradi. Sima I lashkarboshilari bilan chodirga kirib, maktubni ochib o'qiydi. Unda Chjuge Lyan Sima Ining ustidan kulib, uni o'z hayotidan qo'rqadigan ayol deb mazax qilgandi. Sima I g'azablanadi, lekin o'z jahlini ko'rsatmay, qutini ochadi. Uning ichida faqat ayollar ko'ylagi bor edi. Lashkarboshilar buni ko'rgach, choparni qatl qilib, zudlik bilan jangga kirishishni qo'mondonlaridan talab qilishadi. Sima I ularga shunday javob beradi: «Kimki sabr-toqat qilmasa, katta rejalarini xavf ostiga qo'yadi».

Sima I choparni qatl qilish o'rniga, uni tushlikka taklif qiladi va Chjuge Lyaning ahvoli hamda sog'ligi to'g'risida surishtiradi. Choparni qo'yib yuborgach, lashkarboshilarga qarata deydi: «Chjuge Lyan nayrang qo'llamoqchi.

Biz bu hiylaga tushmasligimiz lozim. Uning sog'ligi juda yomon ekan, u na uxlayapti va na ovqatlanayapti, menimcha u ko'p yashamaydi. Xabar kelishi zahotiyiq biz jangga kirishamiz». (D.Qodirov. «36 xitoy stratagemasi: harbiy hiylalar va iqtisodiy muvaffaqiyat sirlari»)

Chjuge Lyan o'z dushmani Sima Iga xat bilan birga nutqiy ta'sirni oshirish, adresatning hissiyotlarini qo'zg'atish, qulay vaziyatni kutayotgan dushman tarafni ertaroq jangga kiritish maqsadida ramziy belgi – ayollar ko'ylagini paralingvistik vosita sifatida qo'llaydi. Lekin Sima Ining mulohazakorligi sababli dushmanning bu hiylasi amalga oshmay qoladi. Shu o'rinda «Shiroq» afsonasidagi Shiroqning o'z quloq-burnini kesishi, «Ravshan» dostonida Go'ro'g'lining Ravshanni uzuk orqali maqsadga chorlashi, «Sab'ai sayyor»da

Moniyning shoh Bahromga Diloromning o'zi chizgan suratini ko'rsatishi kabilarni ham misol keltirishimiz mumkin. Demak, nutqiy muloqotning ta'sirchanligini oshirishda, aynan, ko'rgazmalilik, real predmetlilik muhim ahamiyatga ega. Mediamatnning kelib chiqish mohiyati ham muloqotning ana shu xususiyati bilan bog'liqdir.

Bugunga kelib, mediaolam, ya'ni «ommaviy kommunikatsiya vositalari» talqini sezilarli darajada kengayib bordiki, endi tadqiqotchi yoki o'quvchini to'liq qondira olmaydi. Lotinchadan inglizchaga o'tgan «medium» atamasi endi shunchaki «usul», «vosita» ma'nosida tushunilmaydi, chunki endi «axborot tashuvchi» ma'nosi ustuvor. Shuning uchun ham media atamasining texnologik vosita sifatidagi ifodasi faol qo'llanmoqda. U tashuvchilar (ular orqali uzatiladi), taqdimot shakllari (kitob, kasseta, kino, radio va televizion dasturlar, elektron pochta, umuman Internet, bosma nashr, blog) va boshqalarning umumiy mazmunini anglatadi. Ayniqsa, ichki bo'linuvchi tarmoqlar broadcasting (efirga uzatiladigan yoki elektron media) va print media (matbuot, bosma OAV), shuningdek, blogosfera va ijtimoiy tarmoqlar, ya'ni bilim va axborot uzatishni birlashtiruvchi xususiyatiga ega bo'lgan juda keng maydon yoki mediaviylikdir.



1-rasm (mediamatn).



2-rasm (mediamatn).

- Bugun tarmoqdagi statusimga 65 ta layk bosishdi, 27 ta izoh yozishdi, 6 marta ulashishdi. Qalay? Senda nima gaplar?

- Senchalik emas. Ustozimdan bir marta rahmat eshitdim, qo'shni qariya barakalla dedi, onam esa mehr bilan quchib qo'ydi.

Paralingvistik vositalar nutqiy muloqotni to'ldirish, ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilishi tabiiy holdir. Ushbu mediamatndagi lingvistik va paralingvistik birliklarning o'zaro aloqadorligini pragmatik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, ayrim detallar «gapiradi». Dastlab sarlavhaning o'ziyoq tushunchalarning zamonaviy talqini o'zgarib borayotganiga kinoya tarzida ishora qiladi.

Matndagi «layk», «izoh», «ulashish» leksemalari adresantning hozirgi davrda Internet muloqotiga mukkasidan ketgan, Internet og'usiga «nashavand» omma vakili ekanidan dalolat beradi. Dialogning birinchi qismi rasmdagi sariq sochli qizaloqqa tegishli ekanligini ham anglash mumkin, chunki uning qarashlari «zamonaviy», o'zi esa ommaviy madaniyat ta'siridagi yoshlarning tipik vakili. Adresat nutqidagi «ustoz», «qariya», «ona» leksemalari til tashuvchisining milliy axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalanayotganiga ishora.

Jamoa kalish installiyasining qisqa vaqt ichida mashhurlikka erishishini oldindan taxmin qilgan, ammo tarmoqlarda keskin tanqidga uchrashini tasavvur qilmagan, negativ fikrlar bildirishlarini kutmagan. (<https://daryo.uz>.)

Demak, yuqoridagi tahlillarda aytib o'tganimizdek, mediamatn uzvlari o'zaro aloqadorlikda umumiy uyg'unlashmasa, adresat tomonidan salbiy baholanishi ham mumkin ekan. Ammo sharhlar orasida ijobiy fikrlar ham, salbiy fikrlar ham mavjudligi, muloqot etikasiga rioya qilinmagan holda «erkin» bayon qilinganligi sinergetikaning nohiziqchilik tamoyiliga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoevning 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni,
2. Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг тараққиёти. Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. –Тошкент, 2012. Б.9.
3. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 2002. – Б.80.
- 4.Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. - Б. 24// 5.Қаранг: бу ҳақда ишнинг кириш қисмида батафсил маълумот берилган.
6. Алимов Б.С. Хорижий ва миллий оммавий ахборот воситаларида Ўзбекистон имижини яратиш тамойиллари ва истикболи. (1991-2017 йиллар ОАВ материаллари мисолида). Филол. фан бўйича фалс. д-ри... дисс... автореф. – Т., 2018. – 54 б;Рашидова Д., Муратова Н. Интернет журналистика. – Т.: 2007. – 138 б; Қосимова Н. Онлайн журналистика. – Т.: 2019. – 301 б.
7. Марченко Н. Г. Социальная сеть "Вконтакте": лингвопрагматический аспект. Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2013. – 21 с.
8. <https://daryo.uz/k/2020/09/03/uchinchi-axborot-inqilobining-dunyoga-kelishi>
9. Оммавий лисоний маданият. Жамоавий монография. / Ш.Шахабитдинова, Д.Рустамов, Д.Попов, Д.Рустамова, Б.Абдуллаев, Ш.Миралимова. – Андижон: Step by step print, 2020. – Б. 36.
10. Қосимова Н. Онлайн журналистика. – Т., 2019. – Б.301.